| Li Kristina Alekseyevna, Элназарова Шарифа Исроиловна, Эшпулатов Достонбек Боходир огли                                                                              |     |
| TOVAR-XOMASHYO BIRJASIDA SAVDO TURLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING BOZOR SAMARADORLIGIGA TA'SIRI .....                                                              | 432 |
| Xudayberdiyev Kamoliddin Ustemirovich                                                                                                                                |     |
| THE ROLE OF CORPORATE STRUCTURES IN THE DEVELOPMENT OF GLOBAL FINANCIAL RELATIONS.....                                                                               | 438 |
| Kurbaniyazov Shakhzodbek Karimovich                                                                                                                                  |     |
| BANKLARNI MODERNIZATSIYA VA TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASH SAMARADORLIGINI TA'MINLASH VA UNI OSHIRISHNING ASOSIY YO'LLARI .....           | 442 |
| Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li                                                                                                                                       |     |
| KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING: O'ZBEKISTON SHAROITIDA SAMARADORLIK VA INTEGRATSIYA MODELLARI .....                                                               | 446 |
| Kamilov Farxod Shamilevich                                                                                                                                           |     |
| TASHQI SAVDODA EKSPORTNING MAKROIQTISODIY AHAMIYATI .....                                                                                                            | 453 |
| Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna |     |
| РАЗВИТИЕ АСПЕКТОВ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ.....                                                                                        | 459 |
| Юсупов Махамадамин, Закирова Умида Махамадаминовна                                                                                                                   |     |
| LIZING OLUVCHI KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITILISHI .....                                                                      | 462 |
| Sadritdinov Baxodir                                                                                                                                                  |     |



|                                                                                        |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| YASHIL IQTISODIYOT VA KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI ..... | 467 |
| Isroilov Dilshodbek Rustamovich                                                        |     |
| TEKNOLOGIK RESURSLARNI BOSHQARISHDA STRATEGIYALARDAN FOYDALANISH .....                 | 474 |
| Kazakov Olim Sabirovich                                                                |     |
| OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARINING IQTISODIY AHAMIYATI HAMDA ZARURLIGI.....            | 479 |
| Abdusattarova Dildora Bohodirovna                                                      |     |



# OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARINING IQTISODIY AHAMIYATI HAMDA ZARURLIGI

**Abdusattarova Dildora Bohodirovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim eksport xizmatlarining iqtisodiy mohiyati, ularning milliy iqtisodiyot rivojida o'rnini hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, xalqaro ta'lim xizmatlari bozori sharoitida xorijiy talabalarni jalb etish orqali valyuta tushumlarini oshirish, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda inson kapitalini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, oliy ta'lim eksportining mamlakat imiji va innovatsion salohiyatini oshirishdagi roli yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim eksporti, ta'lim xizmatlari, iqtisodiy mohiyat, xalqaro ta'lim bozori, xorijiy talabalar, inson kapitali, raqobatbardoshlik, valyuta tushumlari, milliy iqtisodiyot.

**Abstract.** This article examines the economic essence of higher education export services and analyzes their role and significance in the development of the national economy. Particular attention is paid to the international education services market, increasing foreign currency revenues through attracting international students, enhancing the competitiveness of higher education institutions, and developing human capital. In addition, the role of higher education exports in strengthening the country's image and increasing its innovative potential is highlighted.

**Key words:** higher education export, education services, economic essence, international education market, international students, human capital, competitiveness, foreign currency revenues, national economy.

**Аннотация.** В данной статье анализируется экономическая сущность экспортных услуг высшего образования, а также их роль и значение в развитии национальной экономики. Особое внимание уделяется функционированию международного рынка образовательных услуг, увеличению валютных поступлений за счёт привлечения иностранных студентов, повышению конкурентоспособности высших учебных заведений и развитию человеческого капитала. Кроме того, раскрывается роль экспорта высшего образования в укреплении имиджа страны и повышении её инновационного потенциала.

**Ключевые слова:** экспорт высшего образования, образовательные услуги, экономическая сущность, международный рынок образования, иностранные студенты, человеческий капитал, конкурентоспособность, валютные поступления, национальная экономика.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi jahon xo'jaligining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda ta'lim, xususan, oliy ta'lim xizmatlari nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega soha, balki yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan iqtisodiy faoliyat turi sifatida namoyon bo'lmoqda. Oliy ta'lim eksporti mamlakatlar uchun valyuta tushumlarini shakllantirish, xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish hamda inson kapitalini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sanaladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar oliy ta'lim eksportini strategik yo'nalish sifatida belgilab, xorijiy talabalarni jalb etish, xalqaro ta'lim dasturlarini kengaytirish hamda ta'lim xizmatlari sifatini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga intilmoqda. Shu jihatdan oliy ta'lim eksport xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini chuqur tahlil qilish, ularning milliy iqtisodiyot rivojiga ta'sirini baholash hamda samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini jahon andozalariga muvofiq holda sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, jahon bozorlarida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ayniqsa, ta'lim xizmatlari eksportini jadal rivojlantirish yo'nalishlarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2026-yilda respublika eksport hajmini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish, shu jumladan, ta'lim xizmatlari eksportini 1,7 baravarga oshirish rejalashtirilgan [1]. Bu borada mintaqaviy xususiyatlardan kelib chiqib ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish hamda hududiy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.



O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda chet ellik talabalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur holat oliy ta'lim eksport xizmatlarini rivojlantirish, ularning iqtisodiy ahamiyatini oshirish va mamlakatning xalqaro ta'lim bozoridagi mavqeini mustahkamlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda oliy ta'lim xizmatlarining xalqaro miqyosda kengayishi ushbu sohani nafaqat ijtimoiy institut, balki muhim iqtisodiy faoliyat turi sifatida ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda oliy ta'lim eksporti xizmatlar iqtisodiyoti, inson kapitali nazariyasi, globallashtirish hamda xalqaro savdo konsepsiyalari bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etilgan. Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda ta'lim eksporti xizmatlar savdosining muhim shakllaridan biri sifatida talqin qilinadi. Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) doirasida ta'lim xizmatlari "xizmatlar savdosi"ning alohida yo'nalishi sifatida ko'rib chiqilib, ayniqsa xorijiy talabalar mobilligi orqali amalga oshiriladigan eksport shaklining keng tarqalganligi ta'kidlanadi [2].

Philip G. Altbach oliy ta'limni globallashtirish sharoitida xalqaro xizmatlar bozorining muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, xorijiy talabalar oqimini iqtisodiy va akademik resurslar manbai sifatida talqin qiladi [3].

Jane Knight oliy ta'lim eksportini transchegaraviy ta'lim xizmatlari (branch campus, franchising, joint programs) orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat sifatida izohlaydi [4]. Simon Marginson oliy ta'lim eksportini "yumshoq kuch" (soft power) va global raqobat vositasi sifatida talqin qiladi [5]. Hans de Wit esa oliy ta'lim eksportini xalqarolashtirish siyosatining muhim iqtisodiy yo'nalishi deb hisoblaydi [6].

Martin Carnoy ta'lim xizmatlari eksportini bilimga asoslangan iqtisodiyotning daromad keltiruvchi segmenti sifatida baholaydi [7]. George Psacharopoulos esa oliy ta'lim eksportini inson kapitaliga kiritiladigan investitsiyaning yuqori daromadli shakli sifatida ta'kidlaydi [8].

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun oliy ta'lim eksporti katta imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan muammolarni ham keltirib chiqarishi, shuningdek, sifat, tenglik va milliy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligi qayd etiladi.

Mahalliy olimlardan A.X. Qodirov oliy ta'limni milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida baholab, ta'lim xizmatlari eksporti orqali inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaydi [9]. O.A. Abdullayev esa oliy ta'lim eksportini xizmatlar sohasida yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi faoliyat turi sifatida izohlab, xorijiy talabalarni jalb etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishini asoslaydi [10].

Yuqorida keltirilgan olimlar qarashlari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim eksport xizmatlari zamonaviy iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan, inson kapitalini rivojlantiradigan hamda milliy raqobatbardoshlikni oshiradigan muhim yo'nalish hisoblanadi. Xalqaro ilmiy qarashlar oliy ta'lim eksportining iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini kompleks yondashuv asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim eksport xizmatlarining iqtisodiy mohiyati hamda ularning milliy iqtisodiyot rivojiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, empirik kuzatuv hamda iqtisodiy-statistik usullardan kompleks tarzda foydalanildi. Shuningdek, tizimli yondashuv qo'llanilib, oliy ta'lim eksport xizmatlari xizmatlar iqtisodiyoti, inson kapitali nazariyasi va xalqaro savdo konsepsiyalari doirasida o'rganildi. Kompleks yondashuv asosida iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liqligi ham tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, oliy ta'lim xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar aholining ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirishni maqsad qilib qo'yimoqda.

Bu jarayon islohotlarni amalga oshirishda yangicha yondashuvlar va mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Oliy ta'lim eksportining shakllanishi globallashtirish va xalqaro ta'lim tizimining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu jarayon bir qator davlatlar tomonidan iqtisodiy va siyosiy manfaatlarni ko'zlagan holda amalga oshirilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet ellik talabalarni jalb etish nafaqat universitetlar uchun muqobil daromad manbai bo'lib xizmat qiladi, balki ularni qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishga ham ma'lum darajada hissa qo'shadi.

Mintaqada ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimlashtirish orqali nafaqat ta'lim xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish, balki oliy ta'lim muassasalarining mintaqadagi mavqeini mustahkamlash imkoniyatlari ham yaratiladi (1-jadval).

1-jadval. Osiyo davlatlarida ta'lim xizmatlari eksportining demografik salohiyati indeksi<sup>1</sup>

| №  | Mamlakat           | Indeks   |
|----|--------------------|----------|
| 1  | Xitoy              | 0,058522 |
| 2  | Hindiston          | 0,039169 |
| 3  | Pokiston           | 0,001313 |
| 4  | Indoneziya         | 0,000902 |
| 5  | Vetnam             | 0,000655 |
| 6  | Bangladesh         | 0,000586 |
| 7  | Eron, Islomiy Rep. | 0,000307 |
| 8  | Turkiya            | 0,000215 |
| 9  | Filippin           | 0,000181 |
| 10 | Nepal              | 0,000171 |

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Osiyo davlatlarida ta'lim, xususan, oliy ta'lim xizmatlari eksportining demografik salohiyatini ifodalovchi indeks ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Indeks qiymatining yuqoriligi mamlakat aholisining soni, yosh tarkibi hamda oliy ta'limga bo'lgan potensial talab asosida xorijiy ta'lim xizmatlarini qabul qilish yoki eksport jarayonida ishtirok etish imkoniyatlarining yuqoriligini ko'rsatadi.

Xitoy (0,058522) va Hindiston (0,039169) eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu holat ushbu mamlakatlarda aholi sonining ko'pligi, yoshlar ulushining yuqoriligi hamda oliy ta'limga bo'lgan talabning keskin o'sib borayotgani bilan izohlanadi. Mazkur omillar oliy ta'lim eksport xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini, ya'ni keng talab bazasi orqali barqaror daromad manbai shakllanishini ta'minlaydi.

Pokiston, Indoneziya va Vetnam kabi davlatlarda indeksning o'rtacha darajada bo'lishi ushbu mamlakatlarning mintaqaviy miqyosda oliy ta'lim xizmatlari eksporti bozorida muhim demografik manba ekanligini ko'rsatadi. Ushbu mamlakatlarda oliy ta'limga intilayotgan yoshlar ulushining yuqoriligi kelgusida xorijiy oliy ta'lim muassasalari uchun barqaror talabni shakllantiradi.

Bangladesh, Eron, Turkiya, Filippin va Nepal kabi mamlakatlarda indeks qiymatlarining nisbatan past bo'lishiga qaramay, ularning demografik salohiyati oliy ta'lim eksport xizmatlarining iqtisodiy ahamiyatini inkor etmaydi. Aksincha, mazkur davlatlar rivojlanayotgan bozorlar sifatida qaralib, ular bilan ta'lim sohasida hamkorlikni kengaytirish, qo'shma dasturlar va akademik almashinuvlar orqali oliy ta'lim eksportini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Umuman olganda, Osiyo davlatlarining demografik salohiyati oliy ta'lim eksport xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Katta va yosh aholi ulushiga ega mamlakatlar bilan ta'lim hamkorligini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalari uchun valyuta tushumlarini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda xalqaro ta'lim bozorida barqaror mavqeni egallash imkonini beradi.

Ta'lim xizmatlari eksportining demografik salohiyati indeksi mamlakatning xorijiy oliy ta'lim xizmatlariga bo'lgan potensial talabini baholashga xizmat qiladi. Ushbu indeks aholi soni, yosh tarkibi va oliy ta'limga qamrov darajasini inobatga olgan holda shakllantiriladi. Metodologiya inson kapitali nazariyasi, xizmatlar savdosi hamda xalqaro talabalar mobilligi konsepsiyalariga asoslanadi. Indeksning asosiy maqsadi turli mamlakatlarning demografik xususiyatlari asosida ularning oliy ta'lim eksport xizmatlari bozoridagi potensial rolini aniqlash va taqqoslashdan iborat.

Indeks quyidagi asosiy demografik ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi:

- umumiy aholi soni ( $P_i$ ) – mamlakatdagi jami aholi soni;
- 18–24 yoshdagi aholi ulushi ( $Y_i$ ) – oliy ta'limga eng faol talab shakllanadigan yosh guruhining ulushi;
- oliy ta'limga qamrov darajasi ( $GER_i$ ) – oliy ta'limdagi yalpi qamrov ko'rsatkichi (Gross Enrollment Ratio);
- xalqaro talabalar chiqish koeffitsienti ( $M_i$ ) – mamlakatdan xorijda tahsil olayotgan talabalar ulushi (outbound mobility ratio).

Mazkur ko'rsatkichlar UNESCO Institute for Statistics, World Bank va UN Population Division ma'lumotlari asosida olinadi.

Turli o'lchov birliklaridagi ko'rsatkichlarni taqqoslash imkonini yaratish maqsadida ular min–max normallashtirish usuli orqali 0–1 oralig'iga keltiriladi:

$$X'_i = \frac{X_i - X_{\min}}{X_{\max} - X_{\min}}$$

<sup>1</sup> UNESCO Institute for Statistics, World Bank va UN Population Division ma'lumotlari asosida hisoblangan indeks natijalariga tayangan holda tuzilgan



bu yerda:

- $X_i'$  - normallashtirilgan ko'rsatkich,
- $X_i$  - i-mamlakat bo'yicha dastlabki qiymat,
- $X_{min}, X_{max}$  - tanlangan mamlakatlar bo'yicha minimal va maksimal qiymatlar.

Ta'lim xizmatlari eksportining demografik salohiyati indeksi (DSEI) quyidagi og'irliklangan formulaga asosan aniqlanadi:

$$DSEI_i = \alpha P_i' + \beta Y_i' + \gamma GER_i' + \delta M_i'$$

bu yerda:

- $P_i'$  - normallashtirilgan aholi soni ko'rsatkichi,
- $Y_i'$  - normallashtirilgan yoshlar ulushi ko'rsatkichi,
- $GER_i'$  - normallashtirilgan oliy ta'lim qamrovi,
- $M_i'$  - normallashtirilgan xalqaro talabalar chiqish koeffitsienti,
- $\alpha, \beta, \gamma, \delta$  - og'irlik koeffitsientlari.

Tadqiqotda og'irlik koeffitsientlari ekspert baholash va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida teng taqsimlangan:

$$\alpha = \beta = \gamma = \delta = 0.25$$

Bu yondashuv demografik salohiyatni shakllantiruvchi omillarning indeksga teng ta'sirini ta'minlaydi. Zaruratga qarab, kelgusida regressiya yoki faktor tahlili orqali og'irliklarni qayta aniqlash mumkin.

Indeks qiymatlari quyidagicha izohlanadi:

- $DSEI \geq 0.03$  - juda yuqori demografik salohiyat
- $0.01 \leq DSEI < 0.03$  - yuqori salohiyat
- $0.001 \leq DSEI < 0.01$  - o'rtacha salohiyat
- $DSEI < 0.001$  - past salohiyat

Mazkur tasnif mamlakatlarning oliy ta'lim eksport xizmatlari bozorida ustuvor hamkor sifatida tanlanishini asoslashga xizmat qiladi. Ushbu usul oliy ta'lim eksport xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini demografik talab bazasi orqali baholash imkonini beradi hamda oliy ta'lim muassasalari va davlat organlari uchun xorijiy talabalar bozorini aniqlash, ta'lim marketing strategiyalarini ishlab chiqish va xalqaro hamkorlik ustuvor yo'nalishlarini belgilashda amaliy ahamiyat kasb etadi(2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim xizmatlarining mamlakat xizmatlar sohasidagi o'rn<sup>2</sup> (mlrd so'm)

| Yillar | Jami xizmatlar hajmi | Xizmatlarning YalMdagi ulushi, % | Ta'lim xizmatlari hajmi | Ta'lim xizmatlarining YalMdagi ulushi, % | Ta'lim xizmatlarining jami xizmatlar ulushi, % |
|--------|----------------------|----------------------------------|-------------------------|------------------------------------------|------------------------------------------------|
| 2019   | 192929               | 36,2                             | 7165                    | 1,3                                      | 3,7                                            |
| 2020   | 223050               | 36,8                             | 8539                    | 1,4                                      | 3,8                                            |
| 2021   | 272109               | 36,8                             | 12103                   | 1,6                                      | 4,4                                            |
| 2022   | 343374               | 38,3                             | 15858                   | 1,7                                      | 4,6                                            |
| 2023   | 462891               | 43,4                             | 20473                   | 1,9                                      | 4,4                                            |
| 2024   | 560000               | 40,9                             | 25000                   | 1,8                                      | 4,5                                            |

Yuqorida keltirilgan 2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida jami xizmatlar hajmi barqaror o'sib borishi bilan bir qatorda, ta'lim, xususan, oliy ta'lim xizmatlarining xizmatlar sohasidagi ulushi ham sezilarli darajada kengaygan. 2019-yilda ta'lim xizmatlari hajmi 7 165 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 25 000 mlrd so'mga yetgan. Bu holat oliy ta'lim xizmatlarining xizmatlar iqtisodiyotida tobora muhim o'rin egallab borayotganini ko'rsatadi.

Ta'lim xizmatlarining YalMdagi ulushi 1,3 foizdan 1,8 foizgacha oshgani oliy ta'limning milliy iqtisodiyotdagi hissasi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ta'lim xizmatlarining jami xizmatlar sohasidagi ulushi 2019-yildagi 3,7 foizdan 2024-yilda 4,5 foizgacha ko'tarilgan. Mazkur tendensiya oliy ta'lim xizmatlari nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega soha, balki iqtisodiy jihatdan yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi xizmat turiga aylanib borayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 2021–2023-yillarda ushbu ulushning tez o'sishi oliy ta'lim tizimini liberallashtirish, pullik ta'lim xizmatlari ko'lamining kengayishi va xorijiy talabalarni jalb etish siyosati bilan bevosita bog'liqdir.

Oliy ta'lim xizmatlarining xizmatlar sohasidagi o'rn<sup>2</sup> mustahkamlanib borayotgani oliy ta'lim eksport xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy zarurligini asoslaydi. Oliy ta'lim eksporti orqali xizmatlar sohasida valyuta

2 <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2> sayti ma'lumotlari asosida tuzildi



tushumlarini oshirish, ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda mamlakatning xalqaro ta'lim bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Ta'lim xizmatlarining jami xizmatlar sohasidagi ulushining 2019–2024-yillarda oshib borishi oliy ta'lim xizmatlarining yuqori qo'shilgan qiymat yaratish salohiyatiga ega ekanini anglatadi. Xususan, oliy ta'lim eksport xizmatlari xorijiy talabalar kontrakt to'lovlari, yashash, transport va boshqa qo'shimcha xizmatlar orqali ko'p tarmoqli iqtisodiy ta'sir — multiplikativ effektini yuzaga keltiradi.

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan, oliy ta'lim eksport xizmatlarining rivojlanishi iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston iqtisodiyotida xomashyo va sanoat tarmoqlari bilan bir qatorda bilimga asoslangan xizmatlar ulushining oshishi iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi. Ta'lim xizmatlari eksporti mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirib, ilmiy-tadqiqot va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantiradi.

Shuningdek, oliy ta'lim eksporti mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlash, “yumshoq kuch” mexanizmlari orqali O'zbekistonning jahon ta'lim bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Xorijiy talabalar oqimining ko'payishi uzoq muddatda iqtisodiy hamkorlik, investitsiyalar va savdo aloqalarini kengaytirish uchun ijobiy sharoit yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim eksport xizmatlari zamonaviy iqtisodiyot sharoitida nafaqat ijtimoiy soha, balki yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan, barqaror daromad manbai hisoblangan muhim iqtisodiy faoliyat turiga aylanib bormoqda. Jahon tajribasi hamda xorijiy va milliy olimlarning ilmiy qarashlari oliy ta'lim eksporti xizmatlarining inson kapitalini rivojlantirish, milliy raqobatbardoshlikni oshirish va valyuta tushumlarini ko'paytirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida 2019–2024-yillar davomida ta'lim xizmatlari hajmining 7 165 mlrd so'mdan 25 000 mlrd so'mgacha oshgani, shuningdek, ta'lim xizmatlarining jami xizmatlar sohasidagi ulushi 3,7 foizdan 4,5 foizgacha ko'tarilgani oliy ta'lim xizmatlarining iqtisodiyotdagi o'rni mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Ta'lim xizmatlarining YalMdagi ulushining 1,3 foizdan 1,8 foizgacha oshishi esa oliy ta'lim eksport xizmatlarining milliy iqtisodiyot rivojiga tobora ko'proq hissa qo'shayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan ta'lim xizmatlari eksportining demografik salohiyati indeksi Osiyo davlatlari, xususan, Xitoy, Hindiston va Pokiston kabi mamlakatlar O'zbekiston oliy ta'lim eksporti uchun yuqori talab manbai ekanligini ko'rsatdi. Bu esa oliy ta'lim eksport xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati bilan bir qatorda, uning strategik zarurligini ham asoslab beradi.

Oliy ta'lim eksport xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Oliy ta'lim eksportini milliy eksport strategiyasining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilash. Ta'lim xizmatlari eksportini tovar va boshqa xizmatlar eksporti bilan teng darajada strategik soha sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilash lozim.

2. Xorijiy talabalarni jalb etish bo'yicha maqsadli bozorlarni aniqlash. Demografik salohiyati yuqori bo'lgan Osiyo va Afrika davlatlari bo'yicha alohida ta'lim marketing strategiyalarini ishlab chiqish, grantlar, stipendiyalar va qo'shma dasturlarni kengaytirish zarur.

3. Ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish. Oliy ta'lim muassasalarida xalqaro akkreditatsiya, reytinglar va qo'shma ta'lim dasturlarini rivojlantirish orqali ta'lim xizmatlarining eksportbopligini oshirish lozim.

4. Oliy ta'lim eksportining institutsional va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish. Xorijiy talabalar uchun viza, ro'yxatdan o'tish, yashash va ishlash sharoitlarini soddalashtirish oliy ta'lim eksporti hajmini oshirishga xizmat qiladi.

5. Oliy ta'lim eksportining iqtisodiy samaradorligini baholash tizimini joriy etish. Ta'lim xizmatlari eksportining YalM, xizmatlar sohasi va valyuta tushumlariga ta'sirini baholovchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

6. Raqamli va masofaviy ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish. Onlayn va gibril ta'lim dasturlarini kengaytirish orqali oliy ta'lim eksportini hududiy chegaralarsiz rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur.

Shuningdek, oliy ta'lim eksport xizmatlarini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



2. De Siqueira, A. C. The regulation of education through the WTO/GATS // Journal for Critical Education Policy Studies. – 2005. – T. 3. – № 1. – B. 1–11.
3. Altbach, P. G. Globalisation and the university: Myths and realities in an unequal world // Tertiary Education & Management. – 2004. – T. 10. – № 1. – B. 3–25.
4. Knight, J. Cross-border higher education: Issues and implications for quality assurance and accreditation // Higher Education in the World 2007: Accreditation for Quality Assurance: What Is at Stake? – 2007.
5. Marginson, S. Higher education and public good // Higher Education Quarterly. – 2011. – T. 65. – № 4. – B. 411–433.
6. De Wit, H., et al. Internationalisation of higher education. – 2015-yil 5-iyun.
7. Carnoy, M., Rhoten, D. What does globalization mean for educational change? A comparative approach // Comparative Education Review. – 2002. – T. 46. – № 1. – B. 1–9.
8. Psacharopoulos, G. Returns to investment in education: A global update // World Development. – 1994. – T. 22. – № 9. – B. 1325–1343.
9. Qodirov, A. X. Inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish. – Toshkent, 2018-yil.
10. Abdullayev, O. A. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019-yil.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>